

TILSHUNOSLIKDA MURAKKABLASHTIRUVCHI SODDA GAPLARNING O'RGANILISHI: MURAKKABLASHTIRUVCHI VOSITALAR

Omonova Mushtariy Ilyorbek qizi

Oltinkòl tuman 1-son politexnikumi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

Annotatsiya: Tildagi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga keladigan murakkablashuv hodisasi tilning ifoda imkoniyatlari bilan birga uning pragmatik imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi. Maqolada murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi hamda sodda gaplarning murakkablashtiruvchi vositalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sifatdosh o'ram, uyushiq bo'laklar, ravishdosh, o'ramli birliklar, kirishlar va kiritmalar, sodda gaplar, ravishdosh o'ram, undalma, kiritma murakkablashgan gap.

Abstract: The phenomenon of complexity arising from the principle of economy in language shows not only the expressive capabilities of the language, but also its pragmatic capabilities. The article discusses the study of complicated simple sentences and the means of complicating simple sentences.

Keywords: adjective clause, subordinate clauses, adverbs, clauses, introductions and introductions, simple sentences, adverb clauses, imperative, introduction, complicated sentence.

KIRISH

Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo'lmish pragmatika adresat, adresant va nutq vaziyatini bog'liqlikda o'rganadi. Tilda ikkita tamoyil, tejamkorlik hamda ortiqchalik tamoyili mavjud bo'lib, sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi tejamkorlik tamoyili natijasi sifatida ro'y beradi.

Sodda gaplarning murakkablashuvi haqidagi qarashlar G'ani Abdurahmonovga tegishli bo'lib, tilshunos olim murakkab gap atamasini qo'shma gapga nisbatan qo'llagan. Olim sodda gaplarni murakkablashtiruvchi bo'lak birliklari sirasiga ajratilgan bo'lakli sodda gaplar, undalma va kirish so'zlarni kiritib o'tadi.

A.G'ulomov, M.Asqarovalar ham o'z darsliklarida murakkablashtiruvchilarga uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklari, undalmalarni kiritadilar. Hamda bunday murakkablashtirish uni sodda gaplar doirasidan chiqarib yubormasligini, shakliy va mazmuniy jihatdan murakkablashuviga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Sodda gaplarda murakkablashuv sintagmatik yoxud intonation bo'laklarning ishtirokiga ko'ra murakkablashishi mumkin ekanligi H.Boltaboyeva tomonidan qayd etilgan.

Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan biri kiritma bo'lib, bu masalaga dastlab I.Toshaliyev e'tibor qaratadi. Kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasiga kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham tugal intonatsiyani ham uzib qo'yadi, uni murakkablashtiradi. Tadqiqotchi mazkur ishda kiritmalarning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan masalaga, xususan, so'z, birikma, gap va murakkab kiritma, belgi kiritmalar sifatida tasnif qiladi.

Murakkablashtiruvchi vositalarning pragmatik xususiyatlariga monografik aspektda to'liq tatbiq etilmagan bo'lsa-da munosabat bildirilgan tadqiqotlar ham yetarli. M.Mamadaminova monografiyasida murakkablashgan sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar xususida to'xtalib, undalma, kirish so'z, kiritmalarning pragmatik imkoniyatlariga umumiy tarzda baho berib o'tadi.

Sodda gapning tarkibidagi bo'laklar undalmalar, kirish, kiritmali qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomli tizimlar qatnashib, sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi.

Bilamizki, sifatdosh sifatlar kabi predmetning belgisini ko'rsatishga xoslangan va shu xususiyatiga ko'ra bunday tipdagi gaplar sifatdosh deb yuritiladi.

Nizomiddin Mahmudov sifatdosh o'ramli gaplar haqida quyidagicha fikrni ta'kidlaydi: ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdosh o'rami qatnashgan gapning mazmuni o'ramdagi propozitsiyaga ko'ra murakkablashuvi, ya'ni bir sintaktik sodda gapda ikki mazmun munosabati joylashishi mumkin. Bunda tizim asosiy predikatsiyadagi subyektni mantiq jihatdan ta'kidlash, uni sifatlash, tasvirlash maqsadiga qaratilgan bo'ladi.

Ushbu fikr shuni ko'rsatadiki, sifatdosh o'ramli gaplar tarkibida presuppozitsiya mavjud va aynan shu hodisa gapning mazmunini kengaytiradi. Masalan, Xosiyatning onasi ozg'in, baland bo'yli, doim guli o'chgan ko'ylak kiyib yuradigan ayol (Isajon Sulton). Keltirilgan ushbu misolda doim guli o'chgan ko'ylak kiyib yuradigan ayol sifatdosh o'ram gapda ot kesimning aniqlovchisi vazifasida kelgan bo'lib, unda yangi ko'ylak ola olmasdi degan mantiqiy presuppozitsiya ifodalangan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sifatdosh o'ramlar gapda o'ziga xos sintaktik vazifada kelib, gapning mazmunini kengaytirishga, fikrni yaqqolroq aytishga hamda ta'sirchanlik va tasavvur kengligini oshirishga ham, albatta, xizmat qiladi.

Ravishdosh o'ramlar gapda asosiy harakatda belgi sifatidagi qo'shimcha harakat, holatni ifodalab keladi. Gapda ikkinchi darajali predikatsiya vazifasini bajaruvchi bunday ravishdosh o'ramlar sodda gapning mazmuniy tarkibini murakkablashtiradi. Xususan, -y va -a qo'shimchalari bog'lanib kelgan ravishdosh o'ramlarda presuppozitsiya kontekst asosida reallashadi. Masalan, shu yo'llardan qatnay-qatnay umrim o'tdi.

Ushbu gapda ravishdosh o'ramli ikkinchi darajali predikatdan biz aniq ta'kid ma'nosini sezamiz. Lekin gap vaziyati va kontekst shuni ko'rsatadiki, ushbu gap bu yo'llardan har doim yoshligimdan beri qatnayman, bu yo'llarda yurib qaridim singari presuppozitsiyalar mavjud. Shuningdek o'tgan zamon shaklida turgan bunday gaplar aslida hozirgi zamon uchun ishora qilayotganligi ham grammatik presuppozitsiyaning namunasi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tildagi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga keladigan murakkablashuv hodisasi tilning ifoda imkoniyatlari bilan birga uning pragmatik imkoniyatlarini ham ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarning hammasi: uyushiq bo'laklar, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi o'ramli birliklari, kirishlar va kiritmalar ham sodda gaplarga qoshilib ularga qo'shimcha ma'no yuklash yoxud bor ma'noning mohiyatini yanada oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida gap yoxud aynan

sodda gaplar haqida so'z borganda, albatta, sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarga ham alohida to'xtaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir// O'zbek tili va adabiyoti masalalari. - 1962. Ne 3
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - 25
3. Boltaboyeva H. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar. - Toshkent: Fan, 1969. 4.